

INSONNING QALB AJOYIBOTLARI, NAFSNING TARBIYASI

Zokirova Rano Islom qizi

Buxoro viloyati Vobkent tumani, Islomshunos

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada insonning qalb ajoyibotlari, nafsning tarbiyasi, Qalb shunday narsaki, agar inson uni tanisa, batahqiq, o'zini tanibdi kabi fikrlar, Qalbning qorong'ulik bilan ko'rinishining xunukligi va yorug'lik bilan ko'rinishining chiroyi zohir bo'ladi, zero har bir idish ichidagi borini to'kadi mulohazalar yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Xotirjam-sokin jon, Qalb, Hashr surasi, asfala sofilinga tushib, shaytonlar, Bayhaqiy rivoyati, sanadida, mavzu'chilar, Muhammad ibn Abdurahmon.

Kirish

Bismillahir rohmanir rohim.

Allohga hamd bo'lsin. U shundayin Zotki, Uning ulug'ligini idrok qilish oldida qalblar va aql-idroklar hayratda bo'ladi hamda Uning yorqin nurlarining avvalgi bosqichidanoq butun zamon hodisotlari va nigohlar dahshatga tushadi. U shundayin Zotki, sirlar berkitilgan joylardan xabardor va qalb ichiga yashirilgan narsalarni biluvchi hamda O'zining mulklari doirasida maslahatlashishdan va fikr almashishdan behojatdir. U qalblarni o'zgartiruvchi, gunohlarni kechuvchi, ayblarni berkituvchi va qayg'ularni aritib yuboruvchi Zotdir. Rasullar sayyidi, din shomilligining jamlovchisi va mulhidlar ortini kesuvchi Payg'ambarga hamda u zotning toyyib va tohir oli-ashobiga ko'plab salovot va salomlar bo'lsin.

Allohning ma'rifati dunyoda insonning chiroyi, kamoli va faxridir, oxiratda esa tayyorgarligi va zaxirasidir. Albatta inson ma'rifat uchun biron a'zosi bilan emas, qalbi bilan tayyorgarlik ko'radi. Qalb Allohni biluvchi, Allohga yaqinlashuvchi, Alloh uchun amal qiluvchidir. Allohga sa'y qiluvchi ham, Uning huzuridagi narsalarni va o'zining oldidagi narsalarni kashf etuvchi ham qalbdir. Albatta boshqa a'zolar ergashuvchi, xizmatkor va xizmat asboblari, xolos. Go'yo xoja qulini, boshliq qo'l ostidagilarni va hunarmandlar asboblarini ishlatganlaridek, qalb boshqa a'zolarini ishga soladi. Allohning huzurida qabul qilinadigan narsa qalbdir. Agar u Allohdan boshqaga topshirilgan bo'lsa, Allohdan boshqa narsalarga g'arq bo'lsa, bu holda u Allohdan to'sib qo'yilgandir.

Talab qilinadigan ham, xitob qilinadigan ham, itob qilinadigan ham qalbdir. Agar u pokiza tutilsa, Allohga qurbat hosil qilish baxtiga erishib, natijada najot topiladigan va agar uni gunohlarga belab, iflos qilinsa, umidlar puchga chiqib badbaxt bo'linadigan narsa ham qalbdir. Haqiqatan qalb Alloh taologa itoat qiluvchidir. Ibodat ta'siridan butun a'zolariga qalbning nurlari tarqaladi. Alloh taologa osiylik, itoatsizlik qiladigan ham qalbdir. Albatta a'zolariga

xunuk ishlarning singishi uning ta'siridandir. Qalbning qorong'ulik bilan ko'rinishining xunukligi va yorug'lik bilan ko'rinishining chiroyi zohir bo'ladi, zero har bir idish ichidagi borini to'kadi.

Qalb shunday narsaki, agar inson uni tanisa, batahqiq, o'zini tanibdi. Agar o'zini tanisa, batahqiq, Robbini tanibdi. Qalb shunday narsaki, agar inson uni tanimasa, o'zini ham tanimabdi, agar o'zini tanimasa, Robbini ham tanimabdi. Kim qalbiga johil bo'lsa, boshqalarga undan ham johilroqdir. Zero, insonlarning ko'plari qablari va nafslarini bilmaydilar hamda o'zlari bilan nafslari o'rtasiga parda tortilgan. Albatta Alloh taolo kishi bilan uning qalbi o'rtasini to'sib qo'yadi. To'sib qo'yishi O'zini mushohada qilish, O'zi bilan muroqaba etish va sifatlarini tanishdan Rahmon (o'ziga xos) barmoqlaridan ikki barmoq orasida o'zgarish kayfiyatidan man qilmog'i bilandir. Bir bor asfala sofilinga tushib, shaytonlarning yo'liga egilgan inson qanday qilib ikkinchi bor yuqori Illiyyinga ko'tarilib, muqarrab farishtalar olamiga yuksaladi?! Kim qalbini muroqaba qilib, unga rioya etmasa, koinot xazinalaridan esayotgan shabadalarni kuzatish uchun qalbini tanimasa, u Alloh taolo mana bu oyatda aytgan kishilardandir:

«Ular Allohni unuttidilar, bas, Alloh ularga o'zlarini unuttirdi. Albatta ular fosiq itoatsiz kimsalardir» (Hashr surasi, 19-oyat).

Qalbni tanish va uning sifatleri haqiqati dinning negizi hamda solihlar yo'lining poydevoridir.

«Aytng: **«Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardandir»** (Al-Isro surasi,

Va u Robboniy ajoyib bir ishdir, aksar aql va fahmlar uning haqiqatiga yetishda ojiz qoladi.

Uchinchi lafz «nafs» bo'lib, u ham bir necha ma'nolar o'rtasida mushtarakdir. Ulardan ikki ma'no bahsimiz mavzuiga taalluqlidir. Birinchisi shuki, nafs, deganda insondagi g'azab va shahvat quvvatini jamlovchi ma'no iroda qilinadi. Kelgusida buning batafsil sharhi keladi. Bu tasavvuf ahllariga g'olib bo'lgan ma'no bo'lib, ular fikricha, nafs insondagi qoralangan sifatleri jamlovchi asldir, ya'ni negizdir. Ular aytadilar: «Nafsga qarshi kurashish va mudom uni sindirishdan boshqa chora yo'q». Payg'ambar alayhissalomning mana bu so'zlari ham bunga ishoradir: «Ichingdagi nafsing dushmaningning eng yomonidir» (Bayhaqiy rivoyati, sanadida mavzu'chilardan Muhammad ibn Abdurahmon bor).

Ikkinchi ma'no - nafs yuqorida zikr etilganidek, bir ilohiy ne'matdir. Inson nafsi uning o'zidir. Lekin u holatining turlanishiga qarab har xil sifatlanadi. Agar nafs Haq amriga bo'ysungan holda shahvoniy hurujlarni yengishga qodir bo'lsa, u nafsi mutmainna, ya'ni xotirjam-sokin nafs, deb nomlanadi. Alloh taolo aytadi:

«Ey xotirjam-sokin jon, sen rozi bo'lgan va rozi bo'lingan holda Parvardigoring (huzuriga)ga qayt!» (Val-fajr surasi, 27-28-oyatlar.)

Endi nafsni avvalgi ma'nosi bilan oladigan bo'lsak, uning Allohga qaytishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki u Allohdan uzoq va shaytonning jamoasidandir. Agar nafsning sokinligi tom bo'lmay, shahvoniy nafsga bir qarshi chiqib va bir yoqlab ikkilanuvchi bo'lsa, u

malomatgo‘y nafs, deb nomlanadi. Chunki banda Mavlosiga ibodat qilishda qosirlikka yo‘l qo‘yganida nafsi uni malomat etadi. Alloh taolo aytadi:

«**Va Men malomatgo‘y nafsga qasam ichurmanki...**» (Qiyomat surasi, 2-oyat).

Agar nafs e‘tiroz bildirmasa va shahvoniy narsalarga bo‘ysunib, shaytonning vasvasalariga itoat qilsa, u nafsi ammora, ya‘ni yomonlikka buyuruvchi nafs, deb nomlanadi. Alloh taolo Qur‘oni karimda Yusuf alayhissalom tillaridan yoki Azizning ayoli tilidan xabar berib aytadi:

«**Men nafsimni oqlamayman. Chunki nafs - agar Parvardigorimning O‘zi rahm qilmasa, albatta yomonlikka buyurguvchidir**» (Yusuf surasi, 53-oyat).

Yomonlikka buyuruvchi nafs, deganda avvalgi ma‘nodagi nafs, deb tushunilishi joiz bo‘ladi. Demak, birinchi ma‘nodagi nafs qattiq yomonlangan va ikkinchi ma‘nodagi nafs esa maqtagandir. Chunki ikkinchisi insonning nafsi, ya‘ni insonning o‘zidir va Alloh taoloni hamda U yaratgan narsalarni tanib-biluvchi insonning haqiqatidir.

To‘rtinchi lafz «aql»dir. U ham «Ilm kitobi»da zikr qilganimizdek, har xil ma‘nolarda keladi. Ulardan bizning mavzuimizga taalluqlisi ikkitadir. Birinchisi - aql, deganda ishlarning haqiqatini-mohiyatini bilish ma‘nosi anglashiladi. U o‘rni qalb bo‘lgan ilm sifatidan iboratdir. Ikkinchisi - bunda aqldan ilmlarni idrok etuvchi, deb murod qilinadi va shu ma‘noda yuritiladi. Demak, u ilohiy ne‘mat bo‘lgan qalbning o‘zidir. Shu narsa ayonki, har bir biluvchining nafsida bir mustaqil vujud bor. U nafsiga tushgan asl narsadir. Ilm esa - u yerda turuvchi bir sifat. Shunday sifatki, u sifatlanuvchining o‘zi emas, undan bo‘lak narsa. Aqldan, deganda goho olim (biluvchi) sifati iroda qilinsa, goho undan idrok etish o‘rnini iroda qilib, ya‘ni idrok qiluvchi, deb yuritiladi. U Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam so‘zlaridan iroda qilingan narsadir. U zot aytadilar: «Alloh taolo eng avval yaratgan narsa aqldir» («Ilm kitobi»da kelgan).

Albatta ilm moddiydir, avval yaratilgan narsa bo‘lmog‘ini tasavvur etilmaydi. Balki undan oldin yoki u bilan birga ilmning o‘rni yaratilgan bo‘lmog‘i lozimdir. Chunki bu holda unga xitob qilish mumkin bo‘lmaydi. Xabarda kelishicha, Alloh taolo unga, ya‘ni aqlga «Kel», dedi. U keldi, «Ket», dedi, u esa ketdi (hadisidan).

Shunday bo‘lgach, batahqiq, sizga bu lafzlarning ma‘nolari mavjud holda kashf bo‘ldi. Ular jismoniy qalb (ya‘ni, yurak), jismoniy ruh, shahvoniy nafs va ilmlar. Bu to‘rt xil ma‘noga ko‘ra to‘rt lafz yuritiladi. Beshinchi ma‘no ham borki, u insonning ichki tuyg‘usidan bo‘lgan ilohiy ne‘mat - biluvchilik va idrok etuvchilik ne‘matidir. Bu to‘rt lafz, ya‘ni nafs, ruh, qalb va aql - hammasi ana shu beshinchi ma‘noning ustida ittifoqqa keladi, ya‘ni birlashadi. Demak, ma‘no beshta, lafzlar esa to‘rtta. Har biri esa ikki xil ma‘no uchun qo‘llanadi. Ahli ilmlarning ko‘plariga bu lafzlarning har xil ma‘noda kelishi va qaysi ma‘noda bir xil bo‘lishi chigallidir. Ularning xohishlar to‘g‘risida bu aql xohishi, bu ruh istagi, bu qalb xohishi va bu nafs istagidir,

deyishayotganini ko'rasiz. Mulohaza qilib ko'rgan kishi ushbu lafzlarning ma'nolari har xil ekanini bilmaydi. Mana shularga to'silgan pardalarni ochish uchun avval bu lafzlar sharhini keltirdik.

Qur'on va sunnatda «qalb» lafzi keladi. Undan murod inson anglaydigan va narsalarning haqiqati bilinadigan ma'nodir. Gohida u ko'krak ichidagi yurakka nisbatan ham ishlatiladi. Chunki shu ilohiy mohiyat bilan yurakning jismi o'rtasida o'ziga xos bir munosabat bor. Garchi qalb (ilohiy mohiyat) badanning boshqa a'zolari bilan munosabatda, unga xizmat qildirilgan bo'lsa ham, a'zolarga yurak vositasi bilan bog'lanadi. Uning bog'liqligi avval yurakda bo'ladi. Go'yoki yurak qalbning o'rni, uning mamlakati, uning olami va uning ulovi. Shuning uchun Sahl Tustariy qalbni arshga, ko'krakni kursiga o'xshatdilar. Bundan Allohning arshi va Uning kursisi, deb gumon qilinmaydi. Balki bu so'zlardan insonning birinchi mamlakati, tadbirlari, tasarruflari avval joriy qilinadigan joy nazarda tutiladi. U ikkisi, ya'ni qalb va ko'krak qafasi insonga taalluqliligi bilan arsh va kursiga o'xshaydiki, Alloh taologa taalluqligi bilan bu o'xshatish faqatgina ba'zi ko'rinishlardagina to'g'ri bo'ladi, xolos. Buni sharhlash ham bizning maqsadimizga kirmaydiki, bundan qalb mavzuini davom ettirishga o'taylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ihyou ulumid-din (Qalb kitobi). Abu Homid G'azzoliy
2. *Manba: «Ma'rifat saodati» gazetasi*
3. <https://kitobxon.com/oz/kitob/qalb-kozi>